

XALQ OG‘ZAKI IJODI VOSITALARI ORQALI MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI MADANIY- GIGIYENIK TARBIYALASH

Pirnazarova Nafosat Jo‘raqulovna

Jizzax shahar 32-DMTT

Annotatsiya

Oilada bolalarni o‘z-o‘ziga xizmat mehnat turida bolalarning madaniy –gigiyenik ko‘nikmalarga amal qilishi avvalo bolani tanasini har xil kasalliklardan asraydi. Zero,—Sog‘lom tanda, sog‘ aql . —**Tozalik sog‘lik garovi** – yoz oylari yaqinlashgani sari turli xil mevalar pishadi. Shu mevalarni bolalar yuvmasdan yeyish sog‘liqlari uchun zarar ekanligini bilmaydilar, bilsalar ham ko‘p hollarda unga rioya qilaverishmaydi. Shuning uchun oilaning katta a‘zolari bu borada bolalarga —*ko‘rsatmali shaxsiy namuna* bo‘ladilar. Bolalarga to‘g‘ri va aniq , sodda qilib ma‘lumotlar berib borilishi lozim. Doim bolalarga, uy hayvonlari va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaganda, ovqatlanishdan avval qo‘llarini sovunlab yuvushni o‘rgatishimiz lozim.

Kalit so‘zlar: xalq, og‘zaki, ijod, badiiy tafakkur,

ilg'or, hayotbaxsh, an'ana.

КУЛЬТУРНО-ГИГИЕНИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ ДОШКОЛЬНИКОВ ПОСРЕДСТВОМ УСТНОГО НАРОДНОГО ТВОРЧЕСТВО

Аннотация

Приобщение детей к культурно-гигиеническим навыкам в форме работы по самообслуживанию в семье предохраняет детский организм от различных заболеваний. Ведь в здоровом теле здоровый дух. — Чистота — залог здоровья — с приближением летних месяцев созревают самые разные фрукты. Дети не знают, что употребление в пищу этих фруктов без мытья вредит их здоровью, а если и знают, то часто не следуют этому. Поэтому старшие члены семьи могут быть примером для детей в этом отношении. Детям необходимо давать точную, ясную и простую информацию. Мы всегда должны учить детей мыть руки с мылом перед едой, когда они играют с домашними животными и игрушками.

Ключевые слова: народный, устный, творческий, художественное мышление, продвинутый, яркий, традиционный.

CULTURAL AND HYGIENIC EDUCATION OF PRESCHOOL CHILDREN THROUGH ORAL FOLK CREATIVITY

Annotation

Introducing children to cultural and hygienic skills in the form of self-service work in the family protects the child's body from various diseases. After all, a healthy mind resides in a healthy body. "Cleanliness is the key to health – as the summer months approach, a variety of fruits ripen. Children do not know that eating these fruits without washing is injurious to their health, and if they do know, they often do not follow it. Therefore, older family members can be an example for children in this regard. Children need to be given accurate, clear and simple information. We should always teach children to wash their hands with soap before eating when they play with pets and toys.

Key words: folk, oral, creative, artistic thinking, advanced, bright, traditional.

Xalq og`zaki ijodi tarixiy ijtimoiy tarqqiyoti mobaynida shakllanib kelgan. Bu ijod namunalari mazmunan rang-barangligi xalqning turmush tarzi mehnati xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bog`langan

Xalq pedagogikasidan ma`lumki, insonning mukammal, komil bo`lib kamol topishi juda ko`p ta`limiy-tarbiyaviy ta`sir ostida vujudga keladi.

Bolaning sihat-salomat o`sishi, umumrivojlanishiga ularda o`zo`ziga xizmat mehnat turini hosil qilinganligiga ham bog`liq. ta`sir e`tadi. Bolalarning psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularda o`z-o`ziga xizmat mehnat ko`nikmalarni tarbiyalashda xalq og`izaki ijodi janrlaridan foydalanish samarali ta`sir etadi.

—Xalq ogʻzaki ijodi badiiy tafakkur taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan eng ilgʻor va hayotbaxsh anʼanalarni oʻzida mujassamlashtirgan maʼnaviyat sarchashmasidir.

Xalq ogʻzaki ijodi tarixiy ijtimoiy tarqqiyoti mobaynida shakllanib kelgan. Bu ijod namunalari mazmunan rang-barangligi xalqning turmush tarzi mehnati xalq hayotining barcha tomonlari bilan uzviy bogʻlangan.

Xalq ogʻzaki ijodi janrlari turlichadir: ularga afsona, rivoyat, ertak, latifalar, tarixiy qoʻshiqlar, xalq qoʻshiqlari, qoʻgʻirchoq oʻyinlari, askiyalar kiradi. Xalq ogʻzaki ijodining kichik janrlari maqol, tez aytish, topishmoqlar bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun zarurdir. Tez aytishlar ogʻzaki nutq mashqi boʻlib kichik yoshdagi bolalarda tovushlarni toʻgʻri ohangda soʻzlashga oʻrgatish bilan birga bolalarga estetik zavq bagʻishlaydi.

Topishmoqlar esa bolani oʻylashga va topqirlikga oʻrgatadi. Maqollar

²U.Jumanazarov .Oʻzbek bolalar milliy oʻyinlari va folkliyorning dolzarb muammolari. “Milliy sport turlari va xalq oʻyinlari – milliy qadryatimiz” mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari toʻplami, Jizzax sh., 2005 yil, 28-30 aprel, 30-bet.

xalqning aqlu farosati hamda turmush tajribasining yakuni ular donishmandlik mahsuli. Bolalarda barcha tarbiya turlariga oid koʻnikmalarni tarbiyalashda maqollardan unumli foydalanilsa, tarbiyaviy taʼsir kuchini yanada ortiradi.

Bolalar ilk yoshdan boshlab oilada, mahallada, bogʻchada oʻzini qanday tutish, muomala madaniyati, ovqatlanish, kiyinish, yechinish, saramjon – sarishta yurish, odobli, mehnatsevar boʻlish, boshqalar mehnatini qadrlash kabi odatlarga oʻrgatiladi. Ana shu odatlar bolani odob – ahloq mehnatga layoqatli qilib tarbiyalash mazmunining asosini tashkil etadi.

Yuqoridagi koʻrsatgichlarni oilada bolalarda tarkib toptirishning turli uslub, usul, shakl va vositalari mavjud boʻlib, har bir yosh bosqichi turlicha yondashishni talab etadi. Masalan, xikoya

qilish, ertak o‘qib berish, she‘r yod oldirish, tushuntirish, pand-nasixat, o‘rnak ko‘rsatish kabilardan foydalanish mumkin.

- hikoyadagi obrazlarning aksariyati majoziyliigi bolalarda qiziqishni yuzaga keltiradi;

- hikoyadagi voqealikning soddaligi bolalarda soda tarzda xulosa chiqarishga olib keladi;

- bu yosh davrida uzoq muddatli diqqatni to‘plash hali to‘la shakllanmagan bo‘lmaganligi uchun, hikoyalar hajmi juda ixcham, lekin mazmunga boyligi bilan bolalarga mos keladi.

Oilada bolalarni o‘z-o‘ziga xizmat mehnat turida bolalarning madaniy –gigiyenik ko‘nikmalarga amal qilishi avvalo bolani tanasini har xil kasalliklardan asraydi. Zero,—Sog‘lom tanda, sog‘ aql . —**Tozalik sog‘lik garovi** – yoz oylari yaqinlashgani sari turli xil mevalar pishadi. Shu mevalarni bolalar yuvmasdan yeyish sog‘liqlari uchun zarar ekanligini bilmaydilar, bilsalar ham ko‘p hollarda unga rioya qilaverishmaydi. Shuning uchun oilaning katta a‘zolari bu borada bolalarga —*ko‘rsatmali shaxsiy namuna* bo‘ladilar. Bolalarga to‘g‘ri va aniq , sodd qilib ma‘lumotlar berib borilishi lozim. Doim bolalarga, uy hayvonlari va o‘yinchoqlar bilan o‘ynaganda, ovqatlanishdan avval qo‘llarini sovunlab yuvushni o‘rgatishimiz lozim.

Ertaklar bolani quvonchli tuyg‘ularga oshno etadi. Bola aqlini charhlaydi, tafakkurini boyitadi, faraz qilish qobiliyatini o‘stiradi. Ushbu xususiyatlardan kelib chiqib ma‘daniy-gigiyenik ko‘nikmalarni ertak qahramonlarida gavdalantirish mumkin.

Ertakni hikoya qilib beruvchilar (ota-ona, tarbiyachi va boshqalar) uslubiga ko‘ra ular ham o‘z navbatida ikki turga: ijrochi va ijodkor ertakchilarga bo‘linadi. Birinchi turdagi ertak aytib beruvchi eshitgan ertagini qanday bo‘lsa, shunday bolaga aytib beradi . Ikkinchisi esa iste‘dodli, eshitgan, o‘rgangan ertaklarini ijro etmay yangiliklar kiritadi, ertak mazmuniga ta‘sir etmagan holda ta‘sir kuchini oshiradi, eng muhimi tinglovchi dunyoqarashi saviyasiga moslashtiradi.

Ertaklar asosida bolalarda o‘z- o‘ziga xizmat ko‘rsatish bilimlarni berishda ikkinchi ertak aytuvchi ya‘ni, ijodkorlik talab etiladi. Ertakni bolaga aytib berish jarayonida ertak mazmunini buzmasdan, ertak qahramonlarida o‘z-o‘ziga xizmat mehnat ko‘nikmalarni mavjudligiga alohida urg‘u berish lozim.

Oilada bolalarni o‘z-o‘ziga xizmat mehnat turi asosida tarbiyalashda ertak, hikoyalardan foydalanish o‘ziga xos ahamiyatga ega bo‘lib, quyidagilarga amal qilish zarur:

- Bolalrning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olib, tarbiyaviy jarayonda xalq og‘izaki ijodi bo‘lgan hikoyalar va ertaklardan o‘z o‘rnida foydalanish;
- Ota – onalar qo‘llayotgan hikoya va ertaklari mazmunini soddaroq qilib bola ongiga etkazishi;
- Ota onalarning o‘zlari o‘z-o‘ziga xizmat mehnat turida shaxsiy namuna bo‘la olishi va shu kabilar.

Foydalanilagan adabiyotlar

1. U.Jumanazarov .O‘zbek bolalar milliy o‘yinlari va folkliyorning dolzarb muammolari. —Milliy sport turlari va xalq o‘yinlari – milliy qadryatimiz mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami, Jizzax sh., 2005 yil, 28-30 aprel, 30bet.